

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.T.14.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

TURSUNOV JAHONGIR SHOKIROVICH

**GRANULALASH LINIYASIDAGI OZUQA ARALASHTIRGICH
QURILMASINING PARAMETRLARI VA ISH REJIMLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Tursunov Jahongir Shokirovich

Granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirgich qurilmasining parametrlari va ish rejimlarini asoslash..... 3

Турсунов Жахонгир Шокирович

Обоснование параметров и режимов работы устройства смесителя кормов в линии гранулирования..... 21

Tursunov Jahongir Shokirovich

Substantiation of the parameters and operating modes of the feed mixer device in the granulation line..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.T.14.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

TURSUNOV JAHONGIR SHOKIROVICH

**GRANULALASH LINIYASIDAGI OZUQA ARALASHTIRGICH
QURILMASINING PARAMETRLARI VA ISH REJIMLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/T3741 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi kengashtexnika@tdmau.uz va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Borotov Atxam Nurmuxammadovich
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Eshdavlatov Eshpulat Uzakovich
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Karimov Yoqub Ziyodullayevich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Qishloq xo'jaligi texnikasi va texnologiyalarini
sertifikatlash va sinash markazi**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.T.14.02 raqamli kengashning 2026-yil "10"- oktabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190100, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi 288a-uy. Tel.: (99876) 221-87-20; e-mail: info@tdmau.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (08- raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190100, Termiz shahri, "Islom Karimov" ko'chasi 288a-uy. Tel.: (99876) 221-87-20; e-mail: info@tdmau.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "26" sentabrda tarqatildi.
(2026 yil "16"- iyundagi 08- raqamli reyestr bayonnomasi).



M.K.Urozov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

B.E.Qarshiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

F.U.Karshiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik uchun energiya va resurstejamkor ozuqa tayyorlash texnologiyasi va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo miqyosida 32 mlrd. dan ko'proq parrandalar, 1,3 mlrd. dan ko'proq qo'ylar va 1,6 mlrd. ga yaqin yirik shoxli mollar mavjud bo'lib, ularning tarkibida turli xil ozuqa va qo'shimchalar aralashmasini o'zida jamlagan to'la qiymatli granulalangan ozuqalar bilan oziqlantirish eng samarali ekanligini hisobga olsak»¹, ozuqalarni aralashtirishda ish sifatini oshirish hamda resurslarni tejash uchun kam metall va energiya sarfiga ega ozuqa aralashtirgichlarni amaliyotga keng joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, granulalangan ozuqalar ishlab chiqarish liniyalarida konsentrlangan ozuqalar va boshqa qo'shimchalarni talab etilgan darajada bir xil tarkibli qilib aralashtirib beradigan qurilmalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda turli xil konsentrlangan ozuqalarni vitaminlar va ozuqa qo'shimchalari bilan aralashtirib, ulardan granulalangan ozuqalar tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, ozuqalar, vitaminlar va qo'shimchalarni dastlab ma'lum bir miqdorda o'lchab olib, so'ngra ularni aralashtirish orqali tayyorlanayotgan granulalangan ozuqalarning tarkibini bir xillashtirish va sifatini oshirish hamda energiya va resurslarni tejash imkonini beradigan aralashtirish qurilmalarini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu jihatdan dastlab konsentrlangan ozuqalarni vitaminlar va ozuqa qo'shimchalari bilan jadal aralashtirib, so'ngra belgilangan me'yorda suv qo'shib, namligini talab darajasiga keltirib oladigan aralashtirish qurilmasini ishlab chiqish, uning texnologik ish jarayoni hamda ishchi qismlarining parametrlarini asoslash dolzarb hisoblanadi.

O'zbekistonda chorva mollari, baliq va parrandalar uchun ozuqaviy qiymati yuqori bo'lgan granulalangan ozuqalarni ishlab chiqarishda turli xil ozuqa komponentlarini bir xil aralashtirish imkonini beradigan energiya va resurstejamkor aralashtirish qurilmalarini yaratish orqali ularning moddiy texnika bazasini mustahkamlash hamda yuqori samaradorlikka ega texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasida, jumladan «qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish»² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda xo'jaliklar uchun granulalangan ozuqalar ishlab chiqaradigan liniyalarga ozuqalar va ozuqa qo'shimchalarini bir xil aralashtirib berishni ta'minlaydigan

¹ <http://www.nrcs.usda.gov>;

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi [Farmoni](#)

qurilmalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son va 2024-yil 16-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-son farmonlari, 2022-yil 8-fevraldagi “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-121-son, 2025-yil 30-yanvardagi “Chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash, sohada yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-34-son va 2024-yil 12-dekabrda “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-431-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirgich qurilmasini yaratish, aralashtirish usullari, ularning ish rejimlarini tadqiq etish va parametrlarini asoslash bo‘yicha xorijda S.A. Lazutkina, M.R. Minnibaev, A.T. Lebedev, A.V. Zaxarin, R.M. Iskakov, Yu.A. Povoloskiy, M.Yu. Zbarskiy, V.V. Matyushev, A.V. Semenov, B.L. Ivanov, A.I. Rudakov, V.A. Semenov, N.P. Maruk, Ya.S. Opman va boshqa olimlar tomonidan ishlar olib borilgan.

Respublikada ozuqa aralashtirish qurilmasi, aralashtirish usullari, ularning ish rejimlarini tadqiq etish va parametrlari E. Eshdavlatov, F. Qarshiyev, D. Xudoynazarov, A. Borotov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Bu tadqiqotlarda chorvachilik fermalarining ozuqa sexlarida ozuqa aralashmasini oqimli usulda tayyorlash uchun texnologik jarayonning uzluksizligi, aralashtirish jarayonida issiqlik va suyuqlik kiritish bilan ishlov beradigan uzluksiz ishlaydigan aralashtirish qurilmasi parametrlarini asoslash ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, dehqon (shaxsiy yordamchi) yoki oilaviy chorvachilik xo‘jaliklarini qanoatlantiradigan, ish sifati bo‘yicha esa mavjud katta o‘lchamli qurilmalardan qolishmaydigan kichik o‘lchamdagi granulalash liniyalari va ular uchun ozuqa aralashtirish qurilmasini ishlab chiqish va uning belgilangan talablar darajasidagi ish sifatini ta‘minlab beradigan parametrlari va ish rejimlarini asoslash bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining 2024-yil ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №1 “Granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirgich qurilmasining parametrlari va ish rejimlarini asoslash” mavzusidagi topshirig‘i doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ish unumi va energiya sarfi dehqon (shaxsiy yordamchi) yoki oilaviy chorvachilik xo‘jaliklarini qanoatlantiradigan kichik o‘lchamdagi granulalash liniyasi uchun ozuqa aralashtirgich qurilmasini ishlab chiqish, uning parametrlari va ish rejimlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirgich qurilmalariga oid mavjud ilmiy va texnikaviy ma’lumotlar hamda aralashtiriladigan ozuqalarning fizik-mexanik xossalarini tadqiq etish;

granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirish qurilmasining parametrlari va ish rejimlarini nazariy tadqiq qilish;

granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirgich qurilmasining konstruksiyasini ishlab chiqish;

granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirgich qurilmasi ishchi qismlarining maqbul parametrlari va rejimlarini nazariy va tajribaviy aniqlash;

granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirgich qurilmasini ozuqalarni aralashtirishda sinab ko‘rish va uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning ob’yekti kepak, maydalangan bug‘doy doni, maydalangan makka doni va maydalangan arpa ozuqalarini kiritish qismi, qurilma ishchi qismlarining texnologik ish jarayoni, uning ozuqalarni aralashtirish bir xilligini ta’minlash, suyuq komponentlarni kiritish orqali ozuqalarning namlanish darajasining bir xilligini ta’minlash va aralashgan ozuqalarni to‘kish qismlari olingan.

Tadqiqotning predmeti granulalash liniyasi uchun ozuqalarni sifatli aralashtirish va namlanish darajasining bir xilligini ta’minlash, qurilma ishchi qismlarida ozuqalarning o‘zaro ta’sirlashish jarayonini ifodalovchi analitik bog‘lanishlar, ishchi qismlar parametrlari va ish rejimlariga bog‘liq ravishda qurilma ish ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tavsifi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik tahlil, nazariy mexanika, matematik statistikaning qonun va qoidalari qo‘llanilgan hamda tajribalarni o‘tkazish uchun mavjud me’yoriy hujjatlar OST 70.32.2-83 “Qishloq xo‘jaligi texnikalarini sinash. Ozuqa tayyorlash uchun mashina va qurilmalar. Sinash dasturi va usullari”, GOST 24057-88 «Qishloq xo‘jaligi texnikasi. Maxsus va universal mashinalar hamda mashinalar kompleksini sinash bosqichida ularni ekspluatatsiyaviy-texnologik baholash usullari», GOST R ISO 11448-2002 Alohida yuritmal ko‘chma ozuqa tayyorlash qurilmalari “Xavfsizlik talablari va sinash usullari”da belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

dastlab turli xil konsentrlangan ozuqalarni vitaminlar va ozuqa qo‘shimchalari bilan jadal aralashtirib, so‘ngra belgilangan me’yorda suv qo‘shib, yana aralashtirib namligini talab darajasiga keltirib oladigan aralashtirgich qurilmasining konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

ozuqa aralashtirish qurilmasi ishchi kamerasing hajmi uning bir-biridan farq qiladigan yuqori va pastki qismlari hajmi hamda ishchi kamera ichida joylashgan kurakchali valning hajmini hisobga olgan holda qurilmaning belgilangan ish unumini ta'minlashdan kelib chiqib aniqlangan;

qurilmadagi aralashtirish kurakchalarining joylashish shakli va aylanishlar soni ozuqa komponentlarini markazdan kurakchalar uchi tomon va aralashtirish kamerasi yon tomonidan markazga tomon jadal ravishda siljitib borish orqali bir tarkibli aralashma olish shartidan asoslangan;

aralashtirish qurilmasida ozuqaga suv purkash vaqti davomiyligi va miqdori aralashtirilayotgan ozuqaning namligi va dispers tarkibi bir xil bo'lishini hisobga olgan holda maqbul miqdordagi purkash uchliklari soni va ularning joylashish o'rnini aniqlash asosida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik fermer va dehqon xo'jaliklari uchun granulali ozuqalarni tayyorlashda ozuqa komponentlarini sifatli aralashtirish, aralashtirish jarayonida ozuqalarning namlanish darajasining bir xilligini ta'minlash jarayoni yagona kamerada mujassamlashgan ixcham konstruksiyali qurilma ishlab chiqilgan;

ozuqa komponentlarini kam sarf xarajatlar bilan sifatli aralashtirish hisobiga foydalanish xarajatlari va mehnat sarfi kamayishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, qurilma ishchi qismlarining parametrlarini nazariy jihatdan asoslash oliy matematika va nazariy mexikaning qoida va usullari asosida amalga oshirilganligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida granulali ozuqalarni tayyorlashda ozuqa komponentlarini sifatli aralashtirish va aralashtirish jarayonida ozuqalarning namlanish darajasining bir xilligini ta'minlash qurilma sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati granulali ozuqalarni tayyorlashda ozuqa komponentlarini sifatli aralashtirish va aralashtirish jarayonida ozuqalarning namlanish darajasining bir xilligini ta'minlash qurilma ish sifat ko'rsatkichlarini uning ishchi qismlari parametrlariga bog'liqligini ifodalovchi analitik bog'lanishlar va empirik ifodalar aralashtirish qurilmasi ishchi qismlariga doir mavjud bilimlarni boyitadi va shunga o'xshash qurilmalardan samarali foydalanish yo'llarini tadqiq etishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan qurilmadan foydalanilganda granulali ozuqalarni tayyorlashda ozuqa komponentlarini sifatli aralashtirish va aralashtirish jarayonida ozuqalarning namlanish darajasining bir xilligini ta'minlashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirish qurilmasi parametrlari va ish rejimlarini asoslash bo'yicha olingan

natijalar asosida:

ish jarayonida dastlab turli xil konsentrlangan ozuqalarni vitaminlar va ozuqa qo'shimchalari bilan jadal aralashtirib, so'ngra belgilangan me'yorda suv qo'shib, namligini talab darajasiga keltirib oladigan aralashtirgich qurilma konstruksiyasiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasining foydali modelga patenti olingan ("Ozuqa aralashtirgich" FAP №2958–2026y). Natijada granulalangan ozuqa ishlab chiqarishda ozuqa komponentlarini bir-biri bilan bir xil tarkibda aralashtirib beradigan qurilmaning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirish qurilmasi Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on va Termiz tumanlari fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi bilim va innovatsiyalar markazining 2025-yil 30-maydagi 05/04-04-288-son ma'lumotnomasi). Natijada granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirish qurilmasida ozuqalarni aralashtirish bir xilligini 95 %, namlanish darajasini esa kamida 90 % bo'lishini ta'minlashga erishilgan;

granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirish qurilmasi bo'yicha loyiha konstruktorlik hujjatlari (texnik topshiriq va chizmalar) "AGRIXIM" MCHJda loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi bilim va innovatsiyalar markazining 2025-yil 30-maydagi 05/04-04-288-son ma'lumotnomasi). Natijada granulalash liniyalari uchun energiya va resurstejamkor ozuqa aralashtirish qurilmasini ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 12 ta, jumladan respublika jurnallarida 4 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasining FAP 2958 raqamli foydali modelga patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan

natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Masalaning holati, tadqiqot maqsadi va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida jahonda va O'zbekistonda parrandachilik va chorvachilikning rivojlanishi, granulalangan ozuqalar tayyorlashda ozuqalarni sifatli aralashtirishning ahamiyati, ozuqalarni aralashtirishda qo'llaniladigan qurilmalarning tuzilishi va texnologik ish jarayonlarining tahlili, aralashtirgich qurilmalarining sinflanishi, ozuqalarni aralashtirish jarayoni va ular bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari tahlili, aralashtiriladigan ozuqalarning fizik-mexanik xossalarini o'rganish, tadqiqot maqsadi va vazifalari asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Ozuqa aralashtirgich qurilmasining parametrlari va ish rejimlarini nazariy tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida ozuqa aralashtirgich qurilmaning texnologik jarayoni, aralashtirgichning kurakchalar balandligi, kamera diametri, kurakcha mahkamlangan valning uzunligi, valning aylanishlar soni, kurakchalar soni va qurilmaning ish unumini nazariy asoslash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dastlab ozuqa aralashtirgich qurilmalarining konstruksiyasi va texnologik ish jarayoni, ularni tadqiq etish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar hamda ozuqalarning tarkibiy tuzilishini o'rganish asosida kichik xo'jaliklar uchun ixcham variantdagi yengil konstruksiyaga ega ozuqa aralashtirgich qurilmasi ishlab chiqildi (1-rasm).



1-ozuqa kiritish tuynugi; 2-suv sepish tizimi; 3-suv purkagich; 4-kurakchali ishchi organ; 5-val; 6-aralashtirish kamerasi; 7-reduktor; 8-elektrodvigatel; 9-boshqaruv qutisi; 10-ozuqani bo'shatish tuynugi; 11-aralashgan ozuqani solish idishi; 12-aralashtirgich g'ildiragi

1-rasm. Ozuqa aralashtirish qurilmasining texnologik sxemasi


Aralashtirgichning hajmini aniqlashning nazariy asoslari. Granulalash liniyasida qo'llaniladigan ozuqa aralashtirgich qurilmasining asosiy konstruktiv va texnologik parametrlaridan biri uning umumiy ishchi hajmi hisoblanadi. Aralashtirgich hajmini to'g'ri aniqlash qurilmaning ishlab chiqarish unumdorligi, aralashtirish sifati hamda energiya sarfiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli aralashtirgichning

geometrik o'lchamlari va ishchi organlar joylashuvi asosida uning umumiy hajmini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Aralashtirgichning umumiy hajmi qurilmaning pastki va yuqori qismlari hajmlarining yig'indisidan iborat bo'lib, quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$V_{um} = \left[L_{a.k.} \left(\frac{\pi(r_k + s)}{360^0} \right) \alpha + L_{a.k.} H_{y.q.} B_{a.k.} \right] - V_{i.q.}, \quad (1)$$

bunda $L_{a.k.}$ – aralashtirgich kamerasi uzunligi, m; r_k – kurakchali val radiusi, m; s – kurakcha va korpus orasidagi tirqish, m; α – markaziy burchak, gradus; $B_{a.k.}$ – ishchi kameraning eni, m; $H_{y.q.}$ – aralashtirish kamerasi yuqori qismining balandligi, m; $V_{i.q.}$ – ishchi organ egallagan hajm, m³.



2-rasm. Aralashtirgichning umumiy hajmini aniqlashga oid geometrik sxema

Mazkur hajmlar aralashtirgich korpusining geometrik shakli, radiusi, uzunligi hamda ishchi kameraning to'lish darajasiga bog'liq holda aniqlanadi. Qurilmaning pastki qismi odatda yarim silindrsimon shaklda bo'lib, aynan shu hududda ozuqa massasi asosiy aralashtirish jarayoniga uchraydi. Shu sababli pastki qism hajmini aniqlashda markaziy burchak, radius va faol qatlam balandligi kabi parametrlar hisobga olindi.

Tajriba va konstruktiv talablar asosida aralashtirgich parametrlari quyidagicha qabul qilindi:

$L_{ak} = 1,05$ m, $r_k = 0,3$ m, $s = 0,015$ m, $\alpha = 120^0$, $B_{ak} = 0,65$ m, $V_{i.o} = 0,01$ m³.

Hisob-kitob natijalariga ko'ra aralashtirgichning umumiy foydali ishchi hajmi:

$$V_{um} = 0,450 \text{ m}^3$$

ni tashkil etadi. Ushbu hajm ozuqa komponentlarini bir me'yorda va samarali aralashtirishni ta'minlaydi hamda qurilmaning barqaror ish rejimida faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli hisoblanadi.


Aralashtirgich kurakchalarining o'rnatilish burchagini aniqlash.

Granulalash liniyasida presslangan dag'al ozuqalarni aralashtirgich ishchi kamerasiga uzatish jarayoni texnologik tizimning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Uzatish jarayonining barqarorligi ko'p jihatdan uzatish novining qiyalik burchagiga bog'liq bo'ladi. Agar novning qiyaligi yetarli darajada tanlanmasa, ozuqa massasi harakati sekinlashadi, tiqilib qolish holatlari yuzaga keladi va qurilmaning ish unumdorligi pasayadi. Shu sababli uzatish novining qiyalik burchagini nazariy jihatdan asoslash ozuqa harakatining kinematik va dinamik qonuniyatlari asosida amalga oshiriladi.

Ozuqa zarrachasining kurakcha bo'ylab harakatlanish tenglamasi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$ma = G \sin \beta - F_{ishq}, \quad (2)$$

bunda m – ozuqa massasi, kg; a – harakat tezlanishi, m/s^2 ; G – og'irlik kuchi, N; F_{ishq} – ishqalanish kuchi, N; β – kurakchaning qiyalik burchagi, gradus.



3-rasm. Kurakchali aralashtirgich ishchi organining geometrik joylashish sxemasi

Ozuqaning kurakcha bo'ylab siljish sharti

$$G \sin \beta \geq f G \cos \beta \quad \text{yoki} \quad \sin \beta \geq f \cos \beta, \quad (3)$$

bunda f – ishqalanish koeffitsiyenti.

Bunda

$$\frac{\sin \beta}{\cos \beta} \geq f \quad \text{yoki} \quad \tan \beta \geq f$$

(φ_{ishq} - ozuqa xom-ashyosining ishqalanish burchagi) ekanligidan

$$\tan \beta \geq \tan \varphi_{ishq} \quad (4)$$

yoki

$$\beta \text{ f } \varphi_{ishq} \quad (5)$$

Ozuqa xom-ashyosining ishqalanish burchagi $38 - 44^\circ$ oralig'ida ekanligini hisobga olsak, u holda aralashtirgich kurakchalarining qiyalik burchagi $\beta=45^\circ$ yoki undan katta bo'lishi kerak, ya'ni $\beta \geq 45^\circ$ qabul qilamiz.

Ozuqa zarrachalarining kurakcha bo'ylab faol harakatini nazariy asoslash. Aralashtiriladigan ozuqa zarralarining kurakcha sirtiga nisbatan tinch holati tenglamasi quyidagichadir:

$$G \sin \gamma + F_m \cos \gamma = F_{ishq} \cos \gamma \quad (6)$$

yoki

$$mg \sin \gamma + m\omega^2 r_k \cos \gamma = fmg \cos \gamma \quad (7)$$

bunda $G = mg$ – zarrachaning og'irlik kuchi, N;

F_m – zarrachaga ta'sir etuvchi markazdan qochma kuch, N;

$F_{ishq} = fmg$ – ishqalanish kuchi, N;

γ – kurakchanning aylana bo'ylab joylashish burchagi, grad;

ω – zarrachaning kurakcha bo'ylab harakati burchak tezligi, rad/s.

Bundan quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\tan \gamma + \frac{\omega^2 r_k}{g} = f \quad (8)$$

Quyidagi shart bajarilsa aralashtiriladigan ozuqa zarralari kurakcha ta'sirida faol harakat qilib yaxshi aralashishi ta'minlanadi

$$\tan \gamma + \frac{\omega^2 r_k}{g} \geq f \quad (9)$$

Ikkinchi tomondan

$$\frac{\omega^2 r_k}{g} \geq \frac{\sin(\gamma + \varphi_{ishq})}{\cos \varphi_{ishq}} \quad (10)$$

Kurakcha uchidagi tezlikni va ozuqalarning kurakcha sirtidagi muvozanatni aniqlash shuni ko'rsatdiki, ozuqa aralashtirgichlari uchun nazariy jihatdan eng maqbul chiziqli tezlik (periferik) $[V_{chek}] = 1,5 \div 2,0$ m/s hisoblanadi. Biz tanlagan 50 ayl/min tezlikda 1,57 m/s to'g'ri keladi.

Bunda kurakcha uchidagi tezlik 1,57 m/s, kurakchali valning aylanish radiusi 0,30 m, kurakchanning o'rnatilish burchagi 45° , φ_{ishq} - ozuqaning po'latga ishqalanish burchagi o'rtacha $35,75^\circ$ bo'lsa, hisoblashlarga ko'ra

$$1,57 \leq 1,216$$

Bu shuni anglatadiki, $n=50$ ayl/min tezlikda markazdan qochma kuch ozuqani bunker devorlariga yopishtirib tashlamaydi. Ozuqa kurakcha ustiga sirpanib, erkin to'kilib harakatlanadi va yaxshi aralashish sifatini ta'minlaydi.

Ozuqa aralashtirgichning soatlik ish unumdorligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = \frac{60V_{um}\rho_o\xi}{t_{davr}} \quad (11)$$

bunda V_{um} – aralashtirgichning umumiy hajmi, m^3 , ((1) ifoda bo'yicha aniqlanadi); ρ_o – ozuqa aralashmasining hajmiy zichligi, kg/m^3 ; ξ – aralashtirish kamerasining ozuqa bilan to'lish koeffitsiyenti; t_{davr} -bir martalik aralashtirish siklining umumiy davomiyligi, s.

Agar aralashtirgichning umumiy hajmi $V_{um}=0,450 m^3$, ozuqa aralashmasining hajmiy zichligi o'rtacha $\rho_o=330 kg/m^3$, aralashtirish kamerasining ozuqa bilan to'lish koeffitsiyenti $\xi=0,5$, bir martalik aralashtirish siklining umumiy davomiyligi, $t_{davr}=15$ daqiqa bo'lsa, ozuqa aralashtirgichning soatlik ish unumi $Q=238 kg/h$ ekanligi aniqlandi.

Kurakchalar mahkamlangan valning aylanishlar sonini asoslash.

Ozuqalarni aralashtirish qurilmasining texnologik ish jarayonida aralashtirish kamerasiga kurakchalar mahkamlanib o'rnatilgan valning aylanishlar soni kam bo'lishi ozuqalarni kurakchalar tomonidan to'liq aralashtirmasligiga olib kelsa, aylanishlar sonining ko'p bo'lishi, texnologik jarayonning buzilishiga olib kelib, harakatni uzatadigan elektr dvigatelga tushayotgan yuklamani ortiradi va tarmoqdan oladigan quvvatini oshirib, aralashtirilgan ozuqalarning tannarxining ko'tarilishiga olib keladi.


Shuning uchun kurakchalar mahkamlangan valning aylanishlar sonini asoslash uchun quyidagi ifodadan foydalanamiz:

$$n = \frac{30QS_y}{\pi r_k V_{um} \rho_o \xi}, \quad (12)$$

bunda Q – qurilmaning ish unumi, $kg/soat$; ξ – kurakchalarni ozuqalar bilan to'lish koeffitsiyenti; S_y – kurakcha bosib o'tgan yoy uzunligi, m.

(12) ifodadan kurakchali valning aylanishlar soni va aralashtirgichning ish unumi orasidagi bog'lanishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun $r_k=0,3 m$; $V_{um}=0,45 m^3$, $\rho_o = 330 kg/m^3$ va $\xi=0,5-0,6$ tashkil etganda ish unumining valning aylanishlar soniga bog'liq ravishda o'zgarish grafigini quramiz.

4-rasmda kurakchali valning har xil aylanishlar sonida qurilmaning ish unumining o'zgarish grafigi tasvirlangan.




4-rasm. Qurilmaning ish unumi (Q)ning kurakchali valning aylanishlar soni (n)ga bog'liq ravishda o'zgarish grafigi

4-rasmda tasvirlangan bog'lanish grafiklarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ozuqalarni aralashtirish qurilmasi belgilangan texnologik jarayonni samarali va sifatli ta'minlashi uchun qurilmaning ish unumi 250 kg/h atrofida bo'lishi uchun kurakchali valning aylanishlar soni 50 r/min atrofida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'lar ekan. Shuning uchun keyingi ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda valning aylanishlar sonini 50 r/min atrofida qabul qilish yetarli bo'ladi.

Dissertatsiyaning “**Aralashtirgich qurilma ishchi qismlarining parametrlari va ish rejimlarini tajribaviy tadqiq etish**” deb nomlangan uchinchi bobida aralashtirgich qurilma ishchi qismlarining parametrlari va ish rejimlarini tajribaviy tadqiq etish natijalari keltirilgan.

Aralashtirish qurilmasida kurakchali rotorning aylanishlar sonini tajribaviy tadqiq etish. Kurakchali rotorning aylanishlar soni 45 r/min dan oshganidan so'ng aralashtirish qurilmasining ish sifati barcha ko'rsatkichlar bo'yicha belgilangan talablarni qanoatlantiradi (5-rasm).



5-rasm. Aralashtirish qurilmasida kurakchali rotorning aylanishlar sonining ozuqani aralashtirish sifatiga ta'siri

Aralashtirish qurilmasi rotorining umumiy uzunligini tajribaviy tadqiq etish. Ushbu tajriba natijalarining o'rtacha qiymatlariga ko'ra qurilmaning talab darajasidagi ish ko'rsatkichlariga rotorning umumiy uzunligi 1000 mm va 1100 mm bo'lganda erishiladi. Ammo tajribalar davomida rotor uzunligi 1000 mm bo'lganda ayrim tajribalarda ozuqaning aralashtirish bir xilligi 90 % dan past bo'lganligini hisobga olsak, barcha ish sifat ko'rsatkichlari bo'yicha barqaror ko'rsatkichlarga rotorning umumiy uzunligi 1100 mm bo'lganda erishiladi. Shu sababli aralashtirgich qurilmada rotorning umumiy uzunligi 1100 mm bo'lishi tavsiya etiladi.

Aralashtirish qurilmasi kurakchalari enini tajribaviy tadqiq etish. O'tkazilgan tajribalarning umumiy tahliliga ko'ra, ozuqani aralashtirish bir xilligi, ozuqani namlantirishning bir xilligi va ozuqani aralashtirish vaqtining belgilangan vaqtdan chetlashishi bo'yicha ko'rsatkichlarning barqaror qiymatlari aralashtirgich kurakchalarining eni 160 mm bo'lganda ta'minlanadi. Shu sababli qurilmada aralashtirgich kurakchalari enini 160 mm qilib olish tavsiya etiladi.

Aralashtirish qurilmasi kurakchalari balandligini tajribaviy tadqiq etish. Olib borilgan tajribaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kurakchalar balandligi 100 mm bo'lganda ozuqalarni aralashtirish bir xilligi 86,7 % bo'lgan bo'lsa, 10 mm ga ortib 110 mm bo'lganda 1,8 % ga yaxshilanib 88,5 % ga, 120 mm bo'lganda 92,3 % ga yetdi. Kurakchalar balandligi 130 mm bo'lganda esa aralashtirish bir xilligi 93,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 140 mm bo'lganda esa 94,2 % ni tashkil etib, o'zgarish bor-yo'g'i 0,4 % ni tashkil etdi.

Kurakchalar balandligi 100 mm bo'lganda ozuqaning namlanish darajasining bir xilligi 85,2 % ni, 110 mm bo'lganda 87,4 % ni tashkil etib talablarga javob bermadi. 120 mm bo'lganda 91,6 % ni, 130 va 140 mm bo'lganda 92,7 % va 93,4 % ni tashkil etgani holda belgilangan talablarga javob bergan bo'lsa-da, ammo namlanish darajasining bir xilligidagi o'zgarish 1,1 % va 1,8 % larni tashkil etib, uncha katta bo'lmadi.

Ozuqani aralashtirish vaqtining belgilangan vaqtdan chetlashishi esa kurakchalarning balandligi 100 mm va 110 mm bo'lganda kattaroq bo'lgan bo'lsa (24,9 % va 21,3 %), kurakchalarning balandligi 120 mm va undan keyingi 130 mm va 140 mm bo'lgan holatlarda 14,8 % dan 12,4 % va 11,6 % ga pasayib, belgilangan talablarni to'liq qanoatlantirishi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagilarga ko'ra, kurakchalarning balandligi 120 mm bo'lganda aralashtirish sifat ko'rsatkichlarini yuqori darajada ta'minlashga erishiladi.

Aralashtirish qurilmasidagi kurakchalar sonini tajribaviy tadqiq etish. Ushbu tadqiqotda kurakchalar soni 4, 6, 8, 10 va 12 dona qilib o'zgartirilib, har bir holatda olingan aralashmalar sifat ko'rsatkichlari aniqlandi (jadvalga qarang).

Aralashtirish qurilmasida kurakchalar soniga bog‘liq holda ozuqani aralashtirish sifatining o‘zgarishi

№	Tayyorlangan ozuqaning fraksiyalar bo‘yicha tarkibi	Kurakchalar soni, dona				
		4	6	8	10	12
1	Ozuqalarning aralashtirish bir xilligi, %	82,9	84,7	92,6	93,1	93,6
2	Ozuqaning namlanish darajasining bir xilligi, %	76,3	85,0	92,2	93,2	93,5
3	Belgilangan ish unumida ozuqani aralashtirish vaqtining belgilangan vaqtdan chetlashishi, %	28,4	21,3	14,1	13,5	12,0

Tajriba natijalaridan ko‘rinib turibdiki, kurakchalar soni 4 dona bo‘lgan holatda ozuqaning aralashtirish bir xilligi 82,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 12 dona kurakchada 93,6 % ga yetdi. Bu esa kurakchalar soni ortishi bilan ozuqa aralashmasining bir xilligi yaxshilanishini ko‘rsatadi. Ozuqa aralashtirish qurilmasida kurakchalar sonini 8 dona qilib tanlash, texnik-iqtisodiy va texnologik jihatdan eng maqbul yechim sifatida taklif etiladi.

Rotor kurakchalari va aralashtirish kamerasi devori orasidagi tirqishni tajribaviy tadqiq etish. Tirqish 5 mm, 10 mm va 15 mm bo‘lganda bu ko‘rsatkich mos ravishda 13,4 %, 14,2 % va 15,4 % ni tashkil etib belgilangan talablarga to‘liq javob bergan bo‘lsa, 20 mm va 25 mm bo‘lganda 20,8 % va 23,1 % ni tashkil etib talab darajasidan past bo‘lishi aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rotor kurakchalari va aralashtirish kamerasi orasidagi tirqishning 10-15 mm oralig‘ida bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aralashtirish qurilmasi kurakchalarining o‘rnatilish burchagini tajribaviy tadqiq etish. Ozuqani aralashtirish vaqtining belgilangan vaqtdan chetlashishi esa kurakchalarning o‘rnatilish burchagi 35° dan 45° gacha oshirilganda 22,6 % dan 18,7 % so‘ngra esa 11,6 % gacha pasaygan bo‘lsa, kurakchalarning o‘rnatilish burchagi 50° va 55° gacha oshirilganda esa yana 12,8 % dan 14,6 % gacha oshganligini ko‘rish mumkin. Ushbu tajribalar natijalari tahliliga asosan, qurilmada kurakchalarning o‘rnatilish burchagi 45° bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Aralashtirish qurilmasida suv purkagich uchliklar sonini tajribaviy tadqiq etish. Purkagichlar soni ortishi muayyan darajada sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Biroq, 3 ta purkagichda olingan natijalar barqaror va yuqori bo‘lib, keyingi ortishida samaradorlikning yorqin farqi kuzatilmadi. Purkagichlar soni 3 ta bo‘lgan holatda ozuqalarning aralashtirish bir xilligi va namlanish darajasi yuqori, vaqt chetlashishlari esa minimal darajada bo‘lishi ta‘minlandi.

Aralashtirish qurilmasida suyuqlikni purkash vaqtini tajribaviy tadqiq etish. Ozuqani aralashtirish vaqtining belgilangan vaqtdan chetlashishi suyuqlikni

purkash vaqti 20 s va 30 s bo'lganda mos ravishda 24,8 % va 22,3 % ni tashkil etib, belgilangan talablarga javob bermagan bo'lsa, 40 s, 50 s va 60 s bo'lganda mos ravishda 18,7 %, 16,2 % va 15,4 % ni tashkil etib belgilangan talablarga javob berdi. Ushbu mezon bo'yicha eng yaxshi natija suyuqlikni purkash vaqti 50 s bo'lganda erishildi.

Olingan natijalar tahlili asosida 50 sekundlik suyuqlik purkash vaqti eng maqbul ko'rsatkichlarni berdi. Ushbu vaqtda aralashtirish bir xilligi eng yuqori 93,2 %, aralashtirish vaqtida belgilangan vaqtdan chetlashish ham minimal darajada 16,2 % qayd etildi. Bu natijalar asosida suyuqlik purkash vaqtini 50 sekund etib tanlash texnologik jihatdan maqbul qaror hisoblanadi.

Aralashtirish qurilmasida purkaladigan suyuqlik miqdorini tajribaviy tadqiq etish. Ozuqani aralashtirish vaqtining belgilangan vaqtdan chetlashishi esa purkaladigan suyuqlik miqdori 1800 ml bo'lganda 22,9 % ni tashkil etib, belgilangan talablardan yuqori bo'lgan bo'lsa, qolgan 1900 ml, 2000 ml, 2100 ml va 2200 ml da 20 % dan past bo'lib, belgilangan talablarni qanoatlantirishi ma'lum bo'ldi. Ammo bu ko'rsatkich bo'yicha eng yaxshi natijaga purkaladigan suyuqlik miqdori 2000 ml bo'lganda erishildi. Olingan natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, purkaladigan suyuqlik miqdori 2000 – 2100 ml atrofida bo'lganda aralashtirish qurilmasi eng samarali ishlaydi. Bu miqdorda ozuqa komponentlarining eng yuqori darajada bir xil aralashishiga, maqbul namlanishiga va aralashtirish jarayonining belgilangan vaqtda yakunlanishiga erishiladi.

Aralashtirish qurilmasida ozuqalarni aralashtirish vaqtini tajribaviy tadqiq etish. Belgilangan ish unumida ozuqani aralashtirish vaqtining belgilangan vaqtdan chetlashishi aralashtirish vaqti 2 minut va 3 minut bo'lganida mos ravishda 22,4 % va 20,7 % ni tashkil etib belgilangan talablardan past bo'lgan bo'lsa, aralashtirish vaqti 4 minut, 5 minut va 6 minut bo'lganida 17,9 %, 13,4 % va 12,1 % ni tashkil etib belgilangan talablarni qanoatlantirish ma'lum bo'ldi. Ushbu tajriba natijalari tahliliga ko'ra, qurilmada ozuqani aralashtirish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun uni 5 – 6 minut oralig'ida aralashtirib turish tavsiya etiladi. Bu vaqt mobaynida ozuqalarning aralashish va namlanish bir xilligi yuqori darajada bo'lib, aralashtirish vaqti ham umumqabul qilingan vaqt me'yorlariga javob beradi.

Dissertatsiyaning **“Granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirgich qurilmasining sinovlari va uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida ozuqa aralashtirgich qurilmasining qisqacha texnikaviy tavsifi, granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirgich qurilmaning ish sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqilgan aralashtirgichning texnik-iqtisodiy samarasini aniqlash va granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirgich qurilmasining yillik iqtisodiy samarasi keltirilgan.

Tavsiya etilayotgan parametrlar asosida ishlab chiqilgan ozuqa aralashtirgich qurilmasidan foydalanilganda mavjud “SK-500” ozuqa aralashtirgichga nisbatan

ozuqalarni yuqori sifatda kam sarf-xarajatlar bilan bir xillikda aralashtirib berish hisobiga 6 152 725,4 so'm iqtisodiy samara olish imkonini beradi.

XULOSA

“Granulalash liniyasidagi ozuqa aralashtirgich qurilmasining parametrlari va ish rejimlarini asoslash” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. O'zbekistonda chorvachilik, baliqchilik va parrandachilikning tahlili shuni ko'rsatadiki, sohani rivojlantirish, go'sht va boshqa mahsulotlarni ko'paytirish va sifatini oshirish uchun ularni granulalangan ko'rinishdagi kombinatsiyalashgan ozuqalar bilan boqish kerak, ammo granulalangan ko'rinishdagi kombinatsiyalashgan ozuqalar ishlab chiqarishda ularni bir xil tarkibli qilib aralashtirib olish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

2. Granulalangan ozuqa tayyorlashda fraksiyaviy tarkibi va fizik-mexanik xossalari bir-biridan keskin farq qiladigan sochiluvchan va sochilmaydigan, quruq va suyuq ko'rinishdagi ozuqa komponentlari bir-biri bilan aralashtirilishini hisobga olsak, bunday aralashmani aralashtirib beradigan qurilmani ishlab chiqish va uning ishchi qismlari parametrlari va ish rejimlarini aniqlash bo'yicha chuqurroq nazariy va tajribaviy tadqiqotlar olib borish talab etiladi.

3. Nazariy tadqiqotlar asosida kurakchali ozuqa aralashtirgich qurilmasining konstruktiv va texnologik parametrlarini aniqlash usullari ishlab chiqildi hamda aralashtirgichning umumiy ishchi hajmi, pastki va yuqori qismlar hajmlarini hisoblash ifodalari asoslandi.

4. Aralashtirish qurilmasida kurakchali rotorning aylanishlar sonini 35 r/min dan 55 r/min gacha, uning uzunligi 900 mm dan 1300 mm gacha, diametri esa 550 mm dan 750 mm gacha o'zgartirilib tajribaviy tadqiq etilganda kurakchali rotorning aylanishlar soni 50 ayl/min, uning uzunligi 1100 mm va diametri 650 mm bo'lganda ozuqa komponentlarini aralashtirish bir xilligi va ozuqaning namlanish darajasining bir xilligi 90 % dan yuqori bo'lib, aralashtirish vaqtining belgilangan vaqtdan chetlashishi 20 % dan kam bo'lishi aniqlandi va keyingi tadqiqotlar uchun qurilmaning ushbu o'lchamlarini qabul qilish tavsiya etildi.

5. Aralashtirish qurilmasida ozuqalarning aralashtirilishi ko'p jihatdan ozuqa bilan kurakchalarning o'zaro ta'siri hisobiga amalga oshadi va shu sababli tadqiqotlar davomida aralashtirgich kurakchalarining eni 120 mm dan 200 mm gacha, ularning balandligi 100 mm dan 140 mm gacha o'lchamlarda tadqiq etilganda kurakchalar eni 160 mm va ularning balandligi 120 mm bo'lganda ozuqani aralashtirish bir xilligi 92,3 - 94,5 %, namligining bir xilligi 91,6 - 92,5 %, aralashtirish vaqtining belgilangan vaqtdan chetlashishi esa 13,7 - 14,8 % oralig'ida bo'lib, belgilangan talablarga javob berdi va kurakchalarning ushbu parametrlari tavsiya etiladi.

6. Qurilmada ozuqaning eng yaxshi aralashishi va namlanishining bir xilligiga yuqori ko'rsatkichlari hamda aralashtirish vaqtining kam bo'lishiga aralashtirish

validagi kurakchalar soni 8 dona, kurakchalar va aralashtirish kamerasi devori orasidagi tirqish 10 – 15 mm oralig'ida, kurakchalarning o'rnatilish burchagi 45° bo'lganda erishildi va ushbu tajribalar natijalari tahliliga asosan, qurilmada kurakchalarning soni 8 dona, ularning o'rnatilish burchagi 45° hamda kurakchalar va aralashtirish kamerasi orasidagi tirqish 10 – 15 mm bo'lishi maqsadga muvofiq.

7. Qurilmada granulalash uchun tayyorlanayotgan oзуqalarning namligi talab darajasida bo'lishiga suyuqlik purkagich uchliklar soni 3 dona, suyuqlikni purkash vaqti 50 sekund va purkaladigan suyuqlik miqdori 2000 – 2100 ml bo'lganda erishildi va bunda oзуqalarning aralashish bir xilligi va aralashtirish vaqti ham talab darajasida bo'ldi.

8. Qurilmada oзуqani aralashtirish vaqti 2 minutdan 6 minutgacha tadqiq etilganda oзуqaning aralashtirish bir xilligi 78,3 % dan 92,8 % gacha, namlanish darajasining bir xilligi 82,4 % dan 94,1 % gacha ortib, tayinlangan ish unumida oзуqani aralashtirish vaqtining belgilangan vaqtdan chetlashishi 22,4 % dan 12,1 % gacha kamayganligi aniqlandi va ish sifat ko'rsatkichlarining talab darajasidagi barqaror ko'rsatkichlari aralashtirish vaqti 5 – 6 minut bo'lganda ta'minlandi.

9. Olib borilgan sinov natijalariga ko'ra, qurilmada oзуqa komponentlarining aralashtirish bir xilligi 91,2-94,5 % ni tashkil etib, komponentlar taqsimlanish notekisligi va namlanish darajasi belgilangan texnik talablar doirasida ekanligi tasdiqlandi. Shu bilan birga, qurilmaning ish unumi 225-240 kg/soat ni tashkil etdi.

10. Iqtisodiy hisob-kitoblar natijasida ishlab chiqilgan AQ-300 oзуqa aralashtirgich qurilmasini qo'llash orqali foydalanishdagi to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar 1,5 martagacha kamayishi va aralashgan mahsulot sifati 15-20 % ga yaxshilanishi hisobiga yillik **6 152 725,4 so'm** iqtisodiy samara olinishi asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ (PhD).03/2025.27.12.Т.14.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИНЖЕНЕРИИ И АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНЖЕНЕРИИ И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

ТУРСУНОВ ЖАХОНГИР ШОКИРОВИЧ

**ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ И РЕЖИМОВ РАБОТЫ УСТРОЙСТВА
СМЕСИТЕЛЯ КОРМОВ В ЛИНИИ ГРАНУЛИРОВАНИЯ**

**05.07.01 – Машины для сельского хозяйства и мелиорации. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Председатель Научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире применение энерго- и ресурсосберегающих технологий, а также технических средств для приготовления кормов в животноводстве, птицеводстве и рыбоводстве занимает одно из ведущих мест. «Учитывая, что в мировом масштабе насчитывается более 32 млрд птиц, более 1,3 млрд овец и около 1,6 млрд голов крупного рогатого скота, и их скормливание полнорационными гранулированными кормами, содержащими смесь различных кормов и добавок, является наиболее эффективным»¹, повышение качества работы при смешивании кормов, а также экономия ресурсов требуют широкого внедрения в практику смесителей кормов с низкой металлоемкостью и энергоемкостью. С этой точки зрения, важное значение имеет широкое внедрение на линиях производства гранулированных кормов устройств, обеспечивающих смешивание концентрированных кормов и других добавок до требуемой степени однородности состава.

В мире проводятся научно-исследовательские работы, направленные на разработку ресурсосберегающих технологий и новых научно-технических решений реализующих их технических средств для приготовления гранулированных кормов путем смешивания различных концентрированных кормов с витаминами и кормовыми добавками. В связи с этим особое внимание уделяется созданию смесительных устройств, позволяющих предварительно дозировать корма, витамины и добавки в определенном количестве, а затем путем их смешивания обеспечивать однородность состава и повышение качества производимых гранулированных кормов, а также экономить энергию и ресурсы. С этой точки зрения актуальной задачей является разработка смесительного устройства, осуществляющего первоначальное интенсивное смешивание концентрированных кормов с витаминами и кормовыми добавками с последующим добавлением воды по установленной норме для доведения влажности до требуемого уровня, а также обоснование его технологического рабочего процесса и параметров рабочих органов.

В Узбекистане реализуется комплекс широкомасштабных мер, направленных на укрепление материально-технической базы производства высокопитательных гранулированных кормов для сельскохозяйственных животных, рыб и птицы, а также на разработку высокоэффективных технических средств и технологий. Особое внимание уделяется созданию энерго- и ресурсосберегающих смесительных установок, обеспечивающих равномерное смешивание различных кормовых компонентов, что способствует повышению качества гранулированных кормов и эффективности их производства. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, в частности, определены задачи по «увеличению доходов дехкан и фермеров как минимум в 2 раза за счет интенсивного развития сельского хозяйства на научной основе,

¹ <http://www.nrcs.usda.gov>;

доведению ежегодного роста сельского хозяйства минимум до 5 процентов»¹. В реализации этих задач важным направлением является разработка для хозяйств устройств, обеспечивающих однородное смешивание кормов и кормовых добавок в линиях по производству гранулированных кормов.

